

Guldon



Loydan yasalgan guldon – odamlar qadimdan o‘z qo‘llari bilan yasab kelgan nafis va foydali buyum. Bunday idishlarda suv saqlangan, ular bilan uylar bezatilgan va hatto odamlar ularni bir-birlariga sovg‘a ham qilishgan.

Loy buyumlarni **kulollar** tayyorlaydi. Qadim zamonlardan buyon odamlar loydan idish-tovoqlar, o‘yinchoqlar, bezaklar va hatto qurilish materiallarini ham yasashgan. **Kulolchilik san‘ati** yumshoq loyni mustahkam va chiroyli buyumlarga aylantirish mahoratidir. Buning uchun maxsus asboblari va kulolchilik charxidan foydalaniladi.



Bugun siz **guldon** chizishni bosqichma-bosqich o‘rganasiz va uni o‘zingiz istaganingizdek bezaysiz.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Guldonning balandligi va joylashish o‘rnini belgilab, qog‘ozning o‘rtasidan **vertikal chiziq** o‘tkazing. Gorizontall chiziqlar bilan guldon bo‘g‘zining eng keng va eng tor qismini, tubining kengligini hamda guldonning eng keng joyini belgilang.
2. Chiziqlar yordamida **guldon konturini*** **chizing**. To‘g‘rilang. Ortiqcha chiziqlarni o‘chirib tashlang.
3. **Guldonni bo‘yang**, naqshlar bilan bezang. Fon qo‘shing.

***kontur** – predmetning chetidan aylantirib chiziladigan chiziq

